

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**BOLALAR MASALALARI BO'YICHA MILLIY KOMISIYA TO'G'RISIDAGI
NIZOMNI VA BOLALAR MASALALARI BO'YICHA QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI, VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAHAR HAMDA TUMAN
(SHAHAR) KOMISIYALARI TO'G'RISIDAGI NAMUNAVIY NIZOMNI TASDIQLASH
HAQIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-avgustdagি PF-6275-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-avgustdagি PF-6275-son Farmonining **3-bandiga** muvofiq:

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) idoralararo komissiyalari tegishlicha Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya, Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari etib qayta tashkil etilganligi;

Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiyaning (keyingi o'rnlarda — Milliy komissiya) asosiy vazifalari belgilanganligi va uning tarkibi tasdiqlanganligi;

Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalarining hamda Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyalarining (keyingi o'rnlarda — hududiy komissiyalar) namunaviy tarkiblari tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

Milliy komissiyaning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlar hamda faoliyatini tashkil etish tartibi;

Milliy komissiya yig'ilishlarini tashkil etish, hududiy komissiyalarning hisobot berishi muddatlari;

Milliy komissiya faoliyati bo'yicha ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgarlik;

b) Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizom **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

hududiy komissiyalarning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlar hamda faoliyatini tashkil etish tartibi;

tuman (shahar) komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar va bolalarni o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish chora-tadbirlari;

tuman (shahar) komissiyasining bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish chorralari, qabul qiladigan qarorlari, ularning amal qilish hamda ularni ijro etish muddatlari.

3. Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari bir oy muddatda ushbu qaror bilan tasdiqlangan tegishli namunaviy nizomlar asosida o'z nizomlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasın.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **3-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **4-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Vazirliklar va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinosbasari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Ta'lif va sog'liqni saqlash masalalari kotibiyatiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 6-iyul,
363-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-iyuldagi 363-son qaroriga
1-ILOVA

Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiq qoidalar

1. Mazkur Nizom Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiyaning (keyingi o'rnlarda — Milliy komissiya) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Milliy komissiya davlat organlari va tashkilotlarining, shuningdek, Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyyalarining (keyingi o'rnlarda — hududiy komissiyalar) bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

3. Milliy komissiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Milliy komissiya o'z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan faoliyatini tashkil etishda davlat organlari va tashkilotlarini, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb qilish huquqiga ega.

5. Milliy komissiyaning qabul qilgan qarorlari davlat organlari va tashkilotlari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2-bob. Milliy komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Milliy komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, uning sog'lom turmush tarzini ta'minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bolaning ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lishining oldini olish choralarini ko'rish;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar ishlab chiqilishini hamda amalga oshirilishini, shuningdek, ularning ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko'rileyotgan choralarini baholash, monitoring olib borish va samaradorligini oshirish;

tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma'lumotni to'plash, saqlash, qayta ishslash, tahlil qilish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish;

davlat organlari va tashkilotlarining, shuningdek, hududiy komissiyalarning bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

Milliy komissiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

7. Milliy komissiya o‘ziga yuklangan asosiy vazifalardan kelib chiqib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, uning sog‘lom turmush tarzini ta’minlash sohasida:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishida davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlari, Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasalari (keyingi o‘rinlarda — respublika o‘quv-tarbiya muassasalari) va jazoni ijro etish muassasalarining faoliyatida bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilinishini ta’minlaydi;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

farzandlikka olingan, vasiylik, homiylik belgilangan yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek, o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining turmush sharoitlari va ularning tarbiyalanishini nazorat qiladi;

yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning uy-joy bilan ta’minlanishini nazorat qiladi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bilan bog‘liq murojaatlarni ko‘rib chiqadi;

b) bolalarning jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish sohasida:

bolalarning har tomonlama kamol topishiga munosib shart-sharoitlar yaratish, ularni maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim bilan bosqichma-bosqich to‘liq qamrab olish, shuningdek, yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar va ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar bolalariga belgilangan imtiyozlar asosida ta’lim olish chora-tadbirlarini belgilaydi;

bolalar, ayniqsa yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar o‘rtasida ularning ijodiy va individual salohiyatlarini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirdarni o‘tkazadi, bolalar sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalb etilishini tashkil etadi;

bolalarni, ayniqsa oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kira olmagan hamda kasb egallash istagini bildirgan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etadi;

yangi uy-joy massivlarini qurish va loyihalashtirishda o‘yin va sport maydonchalari, bolalar stadionlari va bolalar dam olish zonalari qurish uchun yer maydonlari ajratilishini nazorat qilib boradi;

v) bolaning ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish choralarini ko‘rish sohasida:

bolalarning oilada tarbiya olishi va ularga zarur sharoitlar yaratish choralarini ko‘radi, ularni mustaqil hayotga tayyorlashga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi;

davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

ijtimoiy yetimlikning oldini oladi, yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtiradi, ularning jadal ijtimoiy moslashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratadi;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta’minlash maqsadida ota-onas qaramog‘isiz qolgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilayotgan shaxslarni rag‘batlantirish choralarini ko‘radi;

g) bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar ishlab chiqilishini hamda amalga oshirilishini, shuningdek, ularning ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish sohasida:

bolalar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbazarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko'radi;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga vasiy va homiy tayinlash, farzandlikka berish masalalarida davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek, ularning ijrosini nazorat qiladi;

o'quv-tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini tashkil etish va bandligini ta'minlashga ko'maklashadi;

d) bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko'rilayotgan choralarini baholash, monitoring olib borish va samaradorligini oshirish sohasida:

oilada tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishi monitoringi olib borilishini nazorat qiladi;

davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatini o'rganadi, aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha ta'sir choralarini qo'llaydi;

Milliy komissiya qarorlari ijrosini ta'minlamagan hamda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilgan holatlар bo'yicha ularni bartaraf etish choralarini ko'rmagan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlariga, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taqdimnoma kiritadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, shuningdek, ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz qatnashmayotgan bolalarning hisobi yuritilishini nazorat qiladi, bunday holatlarni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar beradi;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda vasiylik va homiylik sohasidagi ijobiy ish tajribasini o'rganadi hamda ommalashtirish choralarini ko'radi;

e) tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish sohasida:

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlash, ularga vasiy va homiy tayinlash sohasidagi tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlaydi, ularni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, vasiylik va homiylik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi;

j) bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma'lumotni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish sohasida:

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi hamda ulardan davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanadi;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarlik profilaktikasiga oid chora-tadbirlarni amalga oshiradi, nazoratsiz, ota-onalar qarovsiz qolgan hamda muayyan yashash joyiga ega bo'lman bolalarni aniqlash va ularni joylashtirish bilan bog'liq masalalarni o'rganadi va ularni bartaraf etish choralarini ko'radi;

z) davlat organlari va tashkilotlarining, shuningdek, hududiy komissiyalarining bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

hududiy komissiyalarining yillik ish rejalarini kelishadi;

hududiy, tuman (shahar) komissiyalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va tahlil qiladi, ularga tashkiliy-metodik jihatdan ko'maklashadi;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, ularning mansabdar shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligni ta'minlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati hamda tuman (shahar) hokimliklari bolalarni himoya qilish shu'balari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirishga oid chora-tadbirlar ko'radi;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, vasiylik va homiylik sohasida davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik ta'minlanishini tashkil etadi.

Milliy komissiya qonunchilik hujjalariiga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Milliy komissiyaning huquqlari va majburiyatları

8. Milliy komissiya quyidagi huquqlarga ega:

davlat organlari va tashkilotlaridan Milliy komissiya ishi uchun zarur bo'lган ма'lumotlarni, shuningdek, Milliy komissiya qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi haqidagi ma'lumotlarni so'rab olish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi xabarlar yuzasidan tegishli choralar ko'rish;

davlat organlari va tashkilotlarida, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida bolalarni saqlash, tarbiyalash va o'qitish sharoitlarini nazorat qilish;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, ularning o'rtasida qarovsizlik, nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga oid faoliyat bilan shug'ullanadigan davlat organlari va tashkilotlarini o'rganish;

Milliy komissiya faoliyatini tashkil etish doirasida davlat organlari va tashkilotlarining mansabdar shaxslari va mutaxassislarini jalb qilish;

Milliy komissiya yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining Milliy komissiya faoliyatiga oid masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish;

bolalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida davlat mактабдан ташқари та'lim muassasalarida sport va ijodiy to'garaklar tashkil etish hamda bolalar ushbu to'garaklarga belgilangan tartibda jalb etilishini nazorat qilish;

Milliy komissiya qarorlari ijrosini ta'minlamagan hamda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi holatlari bo'yicha ularni bartaraf etish choralarini ko'rmagan mansabdar shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlariga taqdimnomalar kiritish.

Milliy komissiya qonunchilik hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Milliy komissiya:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan takliflarni va murojaatlarni ko'rib chiqishi;

bolaning birinchi navbatdagi manfaatidan kelib chiqib qarorlar qabul qilishi shart.

Milliy komissiya qonunchilik hujjalariiga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. Milliy komissiya faoliyatini tashkil etish

10. Milliy komissiyaning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

11. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari va Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) Milliy komissiyaning hamraislari hisoblanadi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Bolalarni himoya qilish masalalari shu’basi Milliy komissiyaning ishchi organi hisoblanadi.

Davlat organlari va tashkilotlari, o‘quv-tarbiya muassasalari, shuningdek, hududiy komissiyalarning bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatini o‘rganish va tekshirish Milliy komissiya ishchi organi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

13. Milliy komissiya yig‘ilishlari har chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi. Zaruratga ko‘ra, navbatdan tashqari yig‘ilishlar tashkil etilishi mumkin.

14. Milliy komissiya hamraisi:

Milliy komissiya faoliyatini tashkil etadi;

Milliy komissiya ish rejasini tasdiqlaydi;

Milliy komissiya yig‘ilishi sanasini belgilaydi va kun tartibini tasdiqlaydi;

Milliy komissiya yig‘ilishlarida navbatma-navbat raislik qiladi;

Milliy komissiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha komissiya a‘zolariga ijro etish majburiy bo‘lgan topshiriqlar beradi;

Milliy komissiyaning faoliyati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga har yili bir marotaba axborot beradi.

15. Milliy komissiya raisi o‘rinbosari:

Milliy komissiya yig‘ilishlarini tashkil etadi va unda ko‘rib chiqiladigan materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlaydi;

Milliy komissiya ish rejasi va qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

Milliy komissiya hamraislari yo‘qligida ularning vazifalarini bajaradi.

16. Milliy komissiya a‘zolari Milliy komissiya vakolatiga kirdigan masalalarni ko‘rib chiqishda va muhokama qilishda teng huquqqa ega hamda quyidagilarni amalga oshiradi:

Milliy komissiya yig‘ilishlarida va ularni tashkil etishda ishtirok etadi;

Milliy komissiya yig‘ilishlarida ko‘rib chiqiladigan masalalar bilan oldindan (yig‘ilishgacha) tanishadi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minalash, ularning ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish hamda ular o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga oid faoliyat yuzasidan Milliy komissiya yig‘ilishlarida axborot beradi;

davlat organlari va tashkilotlarining, shuningdek, hududiy komissiyalarning bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati bo‘yicha takliflar beradi;

Milliy komissiya hamraisining topshiriqlarini bajaradi.

17. Milliy komissiya a‘zosi yig‘ilishda ishtirok eta olmasa, ko‘rilayotgan masala bo‘yicha o‘z fikrini oldindan yozma ravishda taqdim etish huquqiga ega.

Bunda uning fikri Milliy komissiya yig‘ilishida tanishtiriladi va yig‘ilish bayonnomasiga ilova qilinadi.

18. Milliy komissiya qarorlari Milliy komissiya a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda, Milliy komissiya hamraisidan birining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

19. Davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdar shaxslari Milliy komissiya qarorlarini bajarish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Milliy komissiyaga o‘n besh kun muddatda xabar beradi.

20. Milliy komissiya har chorak yakunlari bo‘yicha hududiy komissiyalarning hisobotlarini eshitadi.

Milliy komissiya faoliyati bo‘yicha hisobotlarning o‘z vaqtida taqdim etilishi va undagi ma‘lumotlarning haqqoniyligi uchun Milliy komissiya hamraislari shaxsan javobgar hisoblanadi.

21. Milliy komissiya vakolatiga kiritilgan muhim masalalarni samarali va tezkor tartibda hal qilish uchun vaqtincha yoki doimiy ishlovchi ishchi guruhlar tuzilishi mumkin. Ishchi guruhlar Milliy komissiyaning qarori bilan tuziladi.

Bunda ishchi guruhlarga jalb qilingan xodimlar o‘z faoliyatlarini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

22. Vazirlar Mahkamasining Bolalarni himoya qilish masalalari shu’basi mas’ul xodimi Milliy komissiyaning kotibi sanaladi.

Milliy komissiya bayonnomalari va qarorlari loyihalari Milliy komissiya kotibi tomonidan tayyorlanadi va Milliy komissiya hamraisdan biri tomonidan tasdiqlanadi.

23. Milliy komissiya har yili o‘z faoliyati yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga axborot taqdim etadi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjaligiga muvofiq hal etiladi.

25. Milliy komissiyani qayta tashkil etish va tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-iyuldaggi 363-son qaroriga
2-ILOVA**

Bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari to‘g‘risida

NAMUNAVIY NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Namunaviy nizom Bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy komissiya) hamda Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari (keyingi o‘rinlarda — tuman (shahar) komissiyasi)ning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatları, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Hududiy va tuman (shahar) komissiyalari hududiy davlat organlari va tashkilotlarining bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

3. Hududiy va tuman (shahar) komissiyalari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiysi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya (keyingi o‘rinlarda — Milliy komissiya) qarorlariga, ushbu Nizom, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjaligiga amal qiladi.

4. Hududiy va tuman (shahar) komissiyalari o‘z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan o‘z faoliyatini tashkil etishda tegishli davlat organlari va tashkilotlarini jalb qilish huquqiga ega.

5. Hududiy va tuman (shahar) komissiyalarining qarorlari hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2-bob. Hududiy komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar hududiy komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va tiklash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish;

bolaning ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish choralarini ko‘rish;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar amalga oshirilishini tashkil etish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko‘rilib olib borish va samaradorligini oshirish;

tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma'lumotlarni toplash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda mahalliy davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish;

davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, tuman (shahar) komissiyalarining bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish.

Hududiy komissiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalgalash oshirishi mumkin.

7. Quyidagilar hududiy komissiyaning funksiyalari hisoblanadi:

a) bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va tiklash sohasida:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishida davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni amalgalash oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlari, Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasalari (keyingi o'rnlarda — respublika o'quv-tarbiya muassasalari) va jazoni ijro etish muassasalarining faoliyatida bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarning amalgalash oshirilishini ta'minlaydi;

farzandlikka olingen, vasiylik, homiylik belgilangan yoki oilaga tarbiyaga olingen (patronat) yetim bolalar va ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, shuningdek, o'quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining turmush sharoitlari va ularning tarbiyalanishini nazorat qiladi;

yetim bolalar va ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning uy-joy bilan ta'minlanishini nazorat qiladi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi;

b) bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish sohasida:

bolalarning har tomonlama kamol topishiga munosib shart-sharoitlar yaratish, ularni maktabgacha, umumiyligi o'rta, o'rta-maxsus va professional ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olish, shuningdek, yetim bolalar va ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar va ijtimoiy ko'makka muhitoj oilalar bolalariga belgilangan imtiyozlar asosida ta'lim olish chora-tadbirlarini belgilaydi;

bolalar, ayniqsa yetim bolalar va ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar o'rtasida ularning ijodiy va individual salohiyatlarini oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni o'tkazadi, bolalar sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishga jaib etilishini tashkil etadi;

bolalarni, ayniqsa oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kira olmagan hamda kasb egallash istagini bildirgan umumiyligi o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitishni tashkil etadi;

yangi uy-joy massivlarini qurish va loyihalashtirishda o'yin va sport maydonchalari, bolalar stadionlari va bolalar dam olish zonalari qurish uchun yer maydonlari ajratilishini nazorat qilib boradi;

v) bolaning ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lishining oldini olish choralarini ko'rish sohasida:

bolalarning oilada tarbiya olishi va ularga zarur sharoitlar yaratish choralarini ko'radi, ularni mustaqil hayotga tayyorlashga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi;

davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

ijtimoiy yetimlikning oldini oladi, yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning jadal ijtimoiy moslashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratadi hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtiradi;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta’minlash maqsadida ota-onsa qaramog‘isiz qolgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilayotgan shaxslarni rag‘batlantirish choralarini ko‘radi;

g) bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar amalga oshirilishini tashkil etish sohasida:

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug‘diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko‘radi;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga vasiy va homiy tayinlash, farzandlikka berish masalalarida davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek, ularning ijrosini nazorat qiladi;

o‘quv-tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini tashkil etish va bandligini ta’minlashga ko‘maklashadi;

d) bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko‘rilayotgan choralarini baholash, monitoring olib borish va samaradorligini oshirish sohasida:

oilada tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishi monitoringi olib borilishini nazorat qiladi;

hududiy davlat organlari va tashkilotlarining bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasidagi faoliyatini o‘rganadi, aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo‘yicha ta’sir choralarini qo‘llaydi;

hududiy komissiya qarorlari ijrosini ta’millagan hamda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlari bo‘yicha ularni bartaraf etish choralarini ko‘rmagan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan hududiy davlat organlari va tashkilotlariga taqdimnomaga kiritadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan, shuningdek, ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlarga uzrli sabablarsiz qatnashmayotgan bolalarning hisobi yuritilishini nazorat qiladi, bunday holatlarni bartaraf etish yuzasidan ko‘rsatmalar beradi;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda vasiylik va homiylik sohasidagi ijobiy ish tajribasini o‘rganadi hamda ommalashtirish choralarini ko‘radi;

e) tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo‘li bilan bartaraf etish sohasida:

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularga vasiy va homiy tayinlash sohasidagi tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlaydi, ularni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo‘li bilan bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlash, vasiylik va homiylik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqishda qatnashadi;

j) bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda mahalliy davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish sohasida:

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ma’lumotlarni to‘playdi, tahlil qiladi hamda ulardan davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanadi;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlik profilaktikasiga oid chora-tadbirlarni amalga oshiradi, nazoratsiz, ota-onalar qarovisiz qolgan hamda muayyan yashash joyiga ega

bo‘lmaqan bolalarni aniqlash va ularni joylashtirish bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi va ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

z) davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, tuman (shahar) komissiyalarining bolalarning huquqlari, erkinlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish sohasida:

hududiy komissiyaning yillik ish rejasini ishlab chiqadi va milliy komissiya bilan kelishgan holda tasdiqlaydi, shuningdek, tuman (shahar) komissiyalarining yillik ish rejalarini kelishadi;

tuman (shahar) komissiyasi faoliyatini muvofiqlashtiradi va tahlil qiladi, ularga tashkiliy-metodik jihatdan ko‘maklashadi;

tuman (shahar) komissiyasining qarorlari ustidan kelgan shikoyatlarni o‘rganadi, noqonuniy yoki asossiz qarorlarni bekor qiladi;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligni ta’minlaydi;

tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu’balari mudirlari va mutaxassislarining kasbiy mahoratini oshirishga oid chora-tadbirlar ko‘radi;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, vasiylik va homiylik sohasida davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik ta’minlanishini tashkil etadi;

tuman (shahar) hokimliklari bolalarni himoya qilish shu’balari mudirlari va mutaxassislarining salohiyati va tajribasini oshirishiga oid chora-tadbirlar ko‘radi.

Hududiy komissiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Hududiy komissiyaning huquqlari va majburiyatları

8. Hududiy komissiya quyidagi huquqlarga ega:

davlat organlari va tashkilotlaridan hududiy komissiya ishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni, shuningdek, milliy va hududiy komissiya qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi haqidagi ma’lumotlarni so‘rab olish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi xabarlar yuzasidan tegishli choralar ko‘rish;

davlat organlari va tashkilotlarida bolalarni saqlash, tarbiyalash va o‘qitish sharoitlarini o‘rganish va nazorat qilish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqishda qatnashish;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, ularning o‘rtasida qarovsizlik, nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga oid faoliyat bilan shug‘ullanadigan davlat organlari va tashkilotlarini o‘rganish;

hududiy komissiya faoliyatiga mansabdor shaxslarni, mutaxassislarni, davlat organlari va tashkilotlari vakillarini va boshqa shaxslarni jalb qilish;

hududiy komissiya yig‘ilishlarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga oid masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish;

yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan ta’lim-tarbiya muassasalarida, respublika o‘quv-tarbiya muassasalarida, jazoni ijro etish muassasalarida hamda ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarida saqlanayotgan bolalar sharoitlarini, shuningdek, ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘linmalaridagi ishlarning holatini o‘rganish;

davlat organlari va tashkilotlarida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi, ular o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qilish;

hududiy komissiya qarorlari ijrosini ta'minlamagan hamda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rmagan mansabdar shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlariga taqdimnomalarini kiritish;

hududiy komissiya tomonidan ko'rib chiqilayotgan ishlar bo'yicha bolalar, ularning qonuniy vakillarini yig'ilishga taklif etish, shuningdek, ishlarning holatini joylarga borib ko'rib chiqish;

Hududiy komissiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Hududiy komissiya:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan takliflarni va murojaatlarni ko'rib chiqishi;

bolaning eng ustun manfaatidan kelib chiqib qarorlar qabul qilishi;

Milliy komissiya qarorlarini bajarishi shart.

Hududiy komissiyaga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

4-bob. Hududiy komissiya faoliyatini tashkil etish

10. Hududiy komissiyaning namunaviy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tegishli hududiy komissiyaning raisi hisoblanadi.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyatlari hududiy komissiyaning ishchi organi hisoblanadi.

13. Hududiy komissiya yig'ilishlari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Zaruratga ko'ra, navbatdan tashqari yig'ilishlar tashkil etilishi mumkin.

14. Hududiy komissiya raisi:

hududiy komissiya yig'ilishi sanasini belgilaydi va kun tartibini tasdiqlaydi;

hududiy komissiya yig'ilishida raislik qiladi va uning ishini tashkil etadi;

davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida hududiy komissiya nomidan ishtirok etadi;

hududiy komissiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha komissiya a'zolariga ijro etish majburiy bo'lgan topshiriqlar beradi;

hududiy komissiyaning faoliyati bo'yicha belgilangan hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi.

15. Hududiy komissiya raisi o'rinnbosari:

hududiy komissiya raisi topshiriqlarini bajaradi;

hududiy komissiya raisi yo'qligida uning vazifalarini bajaradi;

hududiy komissiya ish rejasi, qarorlari va dasturlari ijro etilishini nazorat qiladi;

hududiy komissiya yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qiladi.

16. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyatlari mudirlari hududiy komissiyaning kotibi sanaladi.

17. Hududiy komissiya kotibi:

hududiy komissiya yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan materiallar tayyorlanishini ta'minlaydi;

hududiy komissiya raisining topshiriqlarini bajaradi;

hududiy komissiya yig'ilishida ishtirok etuvchi komissiya a'zolari va shaxslarni yig'ilish vaqtiga kuni haqida xabardor qiladi, ularning hozirligini tekshiradi, komissiya yig'ilishida ko'rib chiqiladigan materiallar bilan tanishtiradi;

hududiy komissiya yig'ilishlari yakuni bo'yicha bayonnomalari tuzadi, hududiy komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar loyihasini tayyorlaydi va rasmiylashtiradi;

hududiy komissiyaning ish rejasi va dasturlariga takliflarni umumlashtiradi, komissiya qarorlari, ish rejasi va dasturlarining ijrosi monitoringini olib boradi;

hududiy komissiya faoliyatiga oid ish yuritish ishlarini amalga oshiradi;

hududiy komissiya qarorlari nusxasi komissiya a'zolariga taqdim etilishini ta'minlaydi.

18. Hududiy komissiya a'zolari komissiya vakolatiga kiradigan masalalarni ko'rib chiqishda va muhokama qilishda teng huquqqa ega hamda quyidagilarni amalga oshiradi:

hududiy komissiya yig'ilishlarida va ularni tashkil etishda ishtirok etadi;

hududiy komissiya yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun tayyorlangan ish materiallari bilan oldindan (yig'ilishgacha) tanishadi;

masalani (ishni) ko'rib chiqishni qoldirish va unga qo'shimcha materiallarni so'rab olish haqida taklif beradi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, ular o'rtaida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha takliflar beradi;

komissiya a'zosi sifatida o'zining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshiradi va tegishli hisobotlarni hududiy komissiya kotibiga taqdim etib boradi.

19. Hududiy komissiya a'zosi yig'ilishda ishtirok eta olmasa, ko'rيلayotgan masala bo'yicha o'z fikrini oldindan yozma ravishda taqdim etish huquqiga ega.

Bunda uning fikri komissiya yig'ilishida tanishtiriladi va yig'ilish bayonnomasiga ilova qilinadi.

20. Hududiy komissiya qarorlari komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Hududiy komissiya qarorlari hududiy komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

21. Davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo'linmalarini mansabdar shaxslari hududiy komissiya qarorlarini bajarish yuzasidan ko'rigan chora-tadbirlar to'g'risida hududiy komissiyaga axborot beradi.

22. Hududiy komissiya tomonidan uning vakolatiga kiritilgan muhim masalalarni samarali va tezkor tartibda hal qilish uchun vaqtinchada yoki doimiy ishlovchi ishchi guruuhlar tuzilishi mumkin.

Ishchi guruuhlar hududiy komissiyaning raisi tomonidan tasdiqlanadi. Bunda ishchi guruuhlarga jalg qilingan xodimlar o'z faoliyatlarini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

23. Hududiy komissiya o'z faoliyati to'g'risida har chorak yakunlari bo'yicha Milliy komissiyaga hisobot berib boradi.

Hududiy komissiya faoliyati bo'yicha hisobotlarning o'z vaqtida taqdim etilishi va undagi ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun hududiy komissiya raisi shaxsan javobgar hisoblanadi.

24. Hududiy komissiya har chorakda o'z faoliyati yuzasidan tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga axborot taqdim etib boradi.

5-bob. Tuman (shahar) komissiyasi faoliyatini tashkil etish

25. Tuman (shahar) komissiyasining namunaviy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

26. Tuman (shahar) hokimi tuman (shahar) komissiyasi raisi hisoblanadi.

27. Tuman (shahar) hokimliklari Bolalarni himoya qilish shu'basi tuman (shahar) komissiyasining ishchi organi hisoblanadi.

28. Tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishlari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Zaruratga ko'ra, navbatdan tashqari yig'ilishlar tashkil etilishi mumkin.

29. Tuman (shahar) komissiyasi raisi:

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishida raislik qiladi va uning ishini tashkil etadi;

davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida tuman (shahar) komissiyasi nomidan ishtirok etadi;

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishi sanasini belgilaydi va kun tartibini tasdiqlaydi;

tuman (shahar) komissiyasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha komissiya a'zolariga ijro etilishi majburiy bo'lgan topshiriqlar beradi.

30. Tuman (shahar) komissiyasi raisi o'rribosari:

tuman (shahar) komissiyasi raisi topshiriqlarini bajaradi;

tuman (shahar) komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini bajaradi;

tuman (shahar) komissiyasi ish rejsi, qarorlari va dasturlari ijro etilishini nazorat qiladi;

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan materiallarning o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qiladi.

31. Tuman (shahar) hokimligi Bolalarni himoya qilish shu'basi mudiri tuman (shahar) komissiyasining kotibi sanaladi.

32. Tuman (shahar) komissiyasi mas'ul kotibi:

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan materiallarning tayyorlanishini ta'minlaydi;

tuman (shahar) komissiyasi raisining topshiriqlarini bajaradi;

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishida ishtirok etuvchi komissiya a'zolari va shaxslarni yig'ilish vaqtiga kuni haqida xabardor qiladi, ularning hozirligini o'rganadi, komissiya yig'ilishida ko'rib chiqiladigan materiallar bilan tanishtiradi;

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishlari yakuni bo'yicha bayonnomalar tuzadi, tuman (shahar) komissiyasi qarorlari loyihamalarini tayyorlaydi va rasmiylashtiradi;

tuman (shahar) komissiyasining takliflarini umumlashtiradi, komissiya qarorlari, ish rejali va dasturlarining ijrosi monitoringini olib boradi;

tuman (shahar) komissiyasi faoliyatiga oid ish yuritish ishlarini amalga oshiradi;

tuman (shahar) komissiyasi qarorlari nusxasi komissiya a'zolariga taqdim etilishini ta'minlaydi.

33. Tuman (shahar) komissiyasi a'zolari komissiya vakolatiga kiradigan masalalarni ko'rib chiqishda va muhokama qilishda teng huquqqa ega hamda quyidagilarni amalga oshiradi:

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishlarida va ularni tashkil etishda ishtirok etadi;

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun tayyorlangan ish materiallari bilan oldindan (yig'ilishgacha) tanishadi;

masalani (ishni) ko'rib chiqishni qoldirish va unga qo'shimcha materiallarni so'rab olish haqida taklif beradi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, ular o'rtaida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha takliflar beradi;

Milliy komissiya, hududiy komissiya va tuman (shahar) komissiyasi topshiriqlarini bajaradi;

komissiya a'zosi sifatida o'zining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshiradi va tegishli hisobotlarni tuman (shahar) komissiyasi kotibiga taqdim etib boradi.

34. Tuman (shahar) komissiyasi a'zosi yig'ilishda ishtirok eta olmasa, ko'rileyotgan masala bo'yicha o'z fikrini oldindan yozma ravishda taqdim etish huquqiga ega.

Bunda uning fikri komissiya yig'ilishida tanishtiriladi va yig'ilish bayonnomasiga ilova qilinadi.

35. Tuman (shahar) komissiyasi qarorlari komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Tuman (shahar) komissiyasi qarorlari tuman (shahar) komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

36. Tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining mansabdar shaxslari tuman (shahar) komissiyasi qarorlarini bajarish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida tuman (shahar) komissiyasiga axborot beradi.

37. Tuman (shahar) komissiyasi tomonidan uning vakolatiga kiritilgan muhim masalalarni samarali va tezkor tartibda hal qilish uchun vaqtincha yoki doimiy ishlovchi ishchi guruqlar tuzilishi mumkin.

Ishchi guruhlar tuman (shahar) komissiyalarining raisi tomonidan tasdiqlanadi. Bunda ishchi guruhlarga jalg qilingan xodimlar o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

38. Tuman (shahar) komissiyasi o‘z faoliyati to‘g‘risida har chorak yakunlari bo‘yicha hududiy komissiyaga hisobot berib boradi.

Tuman (shahar) komissiyasi faoliyati bo‘yicha hisobotlarning o‘z vaqtida taqdim etilishi va undagi ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun tuman (shahar) komissiyasi raisi shaxsan javobgar hisoblanadi.

39. Tuman (shahar) komissiyasi har chorakda o‘z faoliyati yuzasidan tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashiga axborot taqdim etib boradi.

1-§. Tuman (shahar) komissiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari

40. Quyidagilar tuman (shahar) komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va tiklash;

bolalarning ta’lim olishi, jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish;

bolaning ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish hamda yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni muqobil shaklda joylashtirish choralarini ko‘rish;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar amalga oshirilishini tashkil etish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko‘rilayotgan choralarni baholash, monitoring olib borish va samaradorligini oshirish;

tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo‘li bilan bartaraf etish;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishslash, tahlil qilish hamda tegishli organlar va muassasalar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish;

davlat organlari va tashkilotlarining bolalarning huquqlari, erkinlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish.

Tuman (shahar) komissiyasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

41. Quyidagilar tuman (shahar) komissiyasining funksiyalari hisoblanadi:

a) bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va tiklash sohasida:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishida davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini, mahalliy davlat organlari va tashkilotlari, o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatida bola huquqlariga rioya etilishini ta’minlaydi;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilayotgan bolalarni tashxislash, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilishni, ustuvor ravishda bolalarga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etadi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish ishlarini tashkil qiladi, inklyuziv ta’limga jalg qiladi;

farzandlikka olingen, vasiylik, homiylik belgilangan yoki oilaga tarbiyaga olingen (patronat) yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek, o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining turmush sharoitlari va ta’lim-tarbiyasini o‘rganadi;

yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minalash choralarini ko‘radi;

“Mehr daftari” tizimi doirasida yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning muammolarini o‘rganadi hamda hal etadi, ularning orzu-istiklarini ro‘yobga chiqarish choralarini ko‘radi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bilan bog‘liq murojaatlarni ko‘rib chiqadi;

b) bolalarning ta’lim olishi, jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish sohasida:

bolalarning har tomonlama kamol topishiga munosib shart-sharoitlar yaratishni, ularni maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim bilan bosqichma-bosqich to‘liq qamrab olishni, oilaga tarbiyaga olingan bolalar va ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar bolalari belgilangan imtiyozlar asosida ta’lim olishini ta’minlaydi;

bolalar, ayniqsa yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar o‘rtasida ularning ijodiy va individual salohiyatlarini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlarni o‘tkazadi, bolalar sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalb etilishini tashkil etadi;

bolalarni, ayniqsa oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kira olmagan hamda kasb egallash istagini bildirgan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etadi;

yangi uy-joy massivlarini qurish va loyihalashtirishda o‘yin va sport maydonchalari, bolalar stadionlari va bolalar dam olish zonalari qurish uchun yer maydonlari ajratilishini nazorat qilib boradi;

mahalliy davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning bolalarni tarbiyalash, ularni joylashtirish, salomatligini mustahkamlash hamda ular o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning oldini olish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

bolalar, pedagogik jamoalar va jamoatchilik o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni amalga oshiradi;

v) bolaning ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish hamda yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni muqobil shaklda joylashtirish choralarini ko‘rish sohasida:

bolalarning oilada tarbiya olishi va ularga zarur sharoitlar yaratish choralarini ko‘radi, ularni mustaqil hayotga tayyorlashga oid tashabbuslarni amalga oshiradi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoki respublika o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan bolalarni ishga joylashtirishga va ularning maishiy yashash sharoitlarini yaxshilashga, davlat tomonidan ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllarini aniqlashga yordam beradi;

yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni farzandlikka, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olayotgan (patronat) va tarbiya qilayotgan, shuningdek, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlaydi;

o‘quv-tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilarini ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo‘llaydi;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta’minalash maqsadida ota-onas qaramog‘isiz qolgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilayotgan shaxslarni rag‘batlantirish choralarini ko‘radi;

g) bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar amalga oshirilishini tashkil etish sohasida:

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbazarliklar va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug‘diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko‘radi;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish, ularga vasiy va homiy tayinlash, farzandlikka

berish masalalarida davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

o'quv-tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini tashkil etadi va bandligini ta'minlash choralarini ko'radi;

nazoratsiz, ota-onalar qarovisiz qolgan hamda muayyan yashash joyiga ega bo'lмаган bolalarni aniqlaydi va ularni joylashtirish bilan bog'liq masalalarni hal etadi;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma'lumotlarni to'plashdi, tahlil qiladi hamda ulardan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini samaradorligini oshirishda foydalanadi;

d) bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish borasida ko'rileyotgan choralarini baholash, monitoring olib borish va samaradorligini oshirish sohasida:

oilada tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini o'rganadi;

tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni ta'minlash borasidagi faoliyatini o'rganadi, aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha ta'sir choralarini qo'llaydi;

milliy, hududiy va tuman (shahar) komissiyalari qarorlari ijrosini ta'minlamagan hamda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rmagan mansabdar shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlariga taqdimnomma kiritadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, shuningdek, ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz qatnashmayotgan bolalarning hisobi yuritilishini nazorat qiladi, bunday holatlarni bartaraf etadi;

bolalar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llaydi;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish hamda vasiylik va homiylik sohasidagi ijobiy ish tajribani o'rganadi hamda ommalashtiradi;

e) tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni ko'llash amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish sohasida:

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni ta'minlash, ularga vasiy va homiy tayinlash sohasidagi tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlaydi, ularni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va hududiy komissiyaga taqdim etadi;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, vasiylik va homiylik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqishda qatnashadi;

j) bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda tegishli organlar va muassasalar faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish sohasida:

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish ishlarini amalga oshiradi;

bolalar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarlik profilaktikasiga oid chora-tadbirlarni amalga oshiradi, nazoratsiz, ota-onalar qarovisiz qolgan hamda muayyan yashash joyiga ega bo'lмаган bolalarni aniqlash va ularni joylashtirish bilan bog'liq masalalarni o'rganadi va ularni bartaraf etish choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi **kodeksiga** muvofiq komissiyalar vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi;

z) davlat organlari va tashkilotlarining bolalarning huquqlari, erkinlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish sohasida:

tuman (shahar) komissiyasining yillik ish rejasini ishlab chiqadi va hududiy komissiya bilan kelishgan holda tasdiqlaydi;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligni ta'minlaydi;

yetim bolalar va ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uy-joy bilan ta'minlanishini tashkil etadi;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda vasiylik va homiylik sohasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Tuman (shahar) komissiyasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

2-§. Tuman (shahar) komissiyasining huquqlari va majburiyatları

42. Tuman (shahar) komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

davlat organlari va tashkilotlaridan tuman (shahar) komissiyasi ishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni, shuningdek, milliy, hududiy va tuman (shahar) komissiyalari qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi haqidagi ma'lumotlarni so'rab olish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi xabarlar yuzasidan tegishli choralar ko'rish;

davlat organlari va tashkilotlarida bolalarni saqlash, tarbiyalash va o'qitish sharoitlarini o'rganish va nazorat qilish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqishda qatnashish;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, ularning o'rtasida qarovsizlik, nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga oid faoliyat bilan shug'ullanadigan davlat organlari va tashkilotlarini o'rganish;

tuman (shahar) komissiyasi faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlari vakillarini va boshqa shaxslarni jalb qilish;

bolaga nisbatan jamoat tarbiyachisini tayinlash;

tuman (shahar) komissiyasi yig'ilishlarida bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlar rahbarlarining bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga oid masalalar yuzasidan axborotini eshitish;

yetim bolalar va ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'limtarbiya muassasalarida, respublika o'quv-tarbiya muassasalarida, jazoni ijro etish muassasalarida hamda ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida saqlanayotgan bolalar sharoitlarini, shuningdek, ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalaridagi ishlarning holatini o'rganish;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, ularni o'qishga yuborish va ishga joylashtirish masalalari yuzasidan qaror qabul qilish;

tuman (shahar) komissiyasi qarorlari ijrosini ta'minlamagan hamda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rmagan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlariga taqdimnomalar kiritish;

tuman (shahar) komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilayotgan ishlar bo'yicha bolalar, ularning qonuniy vakillarini yig'ilishga taklif etish, shuningdek, ishlarni joylarga borib ko'rib chiqish;

bolalar masalalariga oid ishlarni zaruratga ko'ra bolalarning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari ishtirokisiz ko'rib chiqish;

o'z tashabbusi, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra, bolalarni respublika o'quv-tarbiya muassasasidan muddatidan avval chiqarish masalasini ko'rib chiqish;

bolalarni afv etish to‘g‘risida iltimos qilish, ularni javobgarlikdan ozod qilish, ularga ancha yengilroq bo‘lgan jazoni qo‘llash, ularni shartli ravishda hukm etish, sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash to‘g‘risidagi tavsiyanomalar bilan jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga murojaat qilish;

jazoni ijro etish muassasasi bilan birgalikda bolalarni jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish to‘g‘risida jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga taqdimnomalar kiritish;

ichki ishlar organlari bilan birgalikda ozodlikdan mahrum etish to‘g‘risidagi hukmning ijrosini kechiktirishni bekor qilish hamda mahkumni hukmda belgilangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash uchun yuborish to‘g‘risida jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga taqdimnomalar kiritish;

jazoni ijro etish muassasasining ma‘muriyatiga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni jazoni o‘tash vaqtida saqlab turish sharoitlarini o‘zgartirish haqida jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga taqdimnomalar kiritish.

Tuman (shahar) komissiyasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

43. Tuman (shahar) komissiyasi:

tuman (shahar) komissiyasi yig‘ilishida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan masalalarni muhokama qilishda komissiya a‘zolarining fikrlarini eshitishi;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan takliflarni va murojaatlarni ko‘rib chiqishi;

bolaning eng ustun manfaatidan kelib chiqib qarorlar qabul qilishi;

Milliy komissiya va hududiy komissiya qarorlarini bajarishi shart.

Tuman (shahar) komissiyasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

3-§. Tuman (shahar) komissiyasining nazorat funksiyalari

44. Tuman (shahar) komissiyasi ichki ishlar organlari bilan birgalikda tarbiyaviy ta’sir qilish yoki ma‘muriy jazolash choralari ko‘rilgan, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lman jazoga hukm qilingan, jazoga shartli hukm qilingan va jazoni o‘tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan, respublika o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan yoki jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o‘tagan bolalarning xulq-atvorini kuzatib borishni tashkil etadi, shuningdek, ushbu toifadagi bolalarning hisobini olib boradi.

Zarur hollarda, bolalarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishga joylashtirish yoki ularni ta’lim muassasalariga yuborish chora-tadbirlarini ko‘radi.

45. Tuman (shahar) komissiyasi bolalarni respublika o‘quv-tarbiya muassasalarida hamda yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan ta’lim muassasalarida saqlash, tarbiyalash va ta’lim olish sharoitlari, bolalarning istiqomat joylarida madaniy dam olishlari uyuştilishni, shuningdek, zarur hollarda, umumta’lim maktablarida, boshqa ta’lim muassasalarida, madaniy-ma’rifiy muassasalar va sport tashkilotlarida bolalar bilan tarbiyaviy ishlar olib borilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

Bolani xorijiy davlatdagi ta’lim muassasasiga o‘tkazish munosabati bilan umumiyligi o‘rtasi, o‘rtasi maxsus va professional ta’lim muassasasidan chiqarish faqat ta’lim muassasasi joylashgan tuman (shahar) komissiyasining roziligi bilan amalga oshiriladi.

46. Tuman (shahar) komissiyalari davlat organlari va tashkilotlarida bolalarga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinayotganligi, ular bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvoli, ularning umumta’lim, madaniy va kasbiy darajasini oshirish uchun zarur moddiy-maishiy sharoitlar yaratib berilganligi yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi.

Tuman (shahar) komissiyalari, agar ishlarni davom ettirish bolalarning sog‘lig‘iga xavf soladigan yoki ular uchun boshqacha ziyon keltiradigan bo‘lsa, bolalar va ish beruvchi o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqlidir.

4-§. Bolalarni joylashtirish chora-tadbirlari

47. Tuman (shahar) komissiyalari ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash, ichki ishlar organlari bilan birlgilikda jamoatchilikning faol ishtirokida yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalar farzandlarini, ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarga uzrli sababsiz muntazam bormaydigan bolalarni, shuningdek, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan boshqa bolalarni aniqlaydi va hisobga qo'yadi hamda ularni joylashtirish chora-tadbirlarini ko'radi.

48. Tuman (shahar) komissiyasining bolalarni muqobil joylashtirish shakli ko'rsatilgan qarorlari:

a) ta'lim tashkilotlariga:

bolalarni maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda professional ta'lim muassasalariga joylashtirish uchun;

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga hamda respublika o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish uchun;

b) tuman (shahar) hokimliklari Bolalarni himoya qilish shu'balariga — yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish uchun;

v) sog'liqni saqlash organlariga — nogiron bolalarni joylashtirish, spirtli ichimliklar, giyohvand vositalar, psixotrop yoki intellektual o'zini idora qilish faoliyatiga ta'sir etadigan boshqa moddalarni muntazam iste'mol qiladigan bolalarni davolashni, rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsonlari bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan diagnostika va davolash-tiklash yordami ko'rsatishni tashkil etish uchun;

g) ichki ishlar organlariga — bolalar va ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalar bilan yakka tartibda profilaktika ishlari olib borishni tashkil etish uchun;

d) tashkilotlarning rahbarlariga (mehnat organlaridan bo'sh ish joylari va bo'sh lavozimlar borligi to'g'risida ma'lumotlar olingandan keyin) — ishga qabul qilish uchun yuboriladi.

5-§. Tuman (shahar) komissiyalari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar

49. Tuman (shahar) komissiyalari:

o'n to'rt yoshga to'imasdan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan (o'n uch yoshga to'lgandan keyin og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirgan voyaga yetmaganlar bundan mustasno);

o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan davrda jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan;

o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan davrda jinoyat alomatlari bo'lgan qilmishlar sodir etgan, ularga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoyat ishi tugatilgan;

o'n olti yoshgacha bo'lgan davrda yo'l harakati qoidalarini buzgan;

boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan;

umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida o'qishdan bosh tortgan; ijtimoiy xavfi katta bo'lmasan jinoyatni birinchi marta sodir etganligi uchun qonunchilikka asosan javobgarlikdan ozod qilingan;

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksida](#) nazarda tilgan tartibda ma'muriy huquqbazarliklar sodir etgan bolalar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

6-§. Ta'sir ko'rsatish choralarini va ularni qo'llash

50. Tuman (shahar) komissiyalari ushbu Nizomning [49-bandidaa](#) tilgan hollarda bolalarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashi mumkin:

bolaga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnomasi kiritish;

bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni ogohlantirish;

bolani o'z ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilarini nazoratiga, shuningdek, ularning roziligi bilan mehnat jamoasi yoki nodavlat notijorat tashkilot kuzatuviga topshirish;

o'n besh yoshga to'lgan bola zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan ortiq bo'lmasa yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etish majburiyatini yuklash yoki belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan ortiq bo'lman moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

o'n olti yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan bolalarga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi **kodeksida** nazarda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solish;

bolani qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda respublika o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish.

Har bir aniq holat bo'yicha qabul qilingan ta'sir ko'rsatish choralari to'g'risida tuman (shahar) komissiyalari bolaning yashash, o'qish yoki ish joyi bo'yicha huquqbazarliklarning profilaktikasi bo'linmalari tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yakka tartibda profilaktika ishlarini olib borish masalasini hal etish uchun tegishli hududiy ichki ishlar organlariga xabarnoma yuborishga majbur.

51. Tuman (shahar) komissiyalari bolalarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan bolani saqlash, tarbiyalash va o'qitish bo'yicha o'z vazifalarini bajarishdan bosh tortganligi yoki o'z vazifalarini zarur darajada bajarmaganligi yoxud bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatganligi yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'lganligi uchun, shuningdek, bolalar tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilganligi uchun kuyidagi ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashi mumkin:

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi **kodeksida** belgilangan miqdorlarda jarima solish;

istisno hollarda, bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita xavf mavjud bo'lganda ish sud tomonidan hal etilgunga qadar bolani vaqtincha ota-onasidan yoki bola ularning vasiyligida bo'lgan boshqa shaxslardan olib qo'yish to'g'risida vasiylik va homiylik organlariga iltimosnoma kiritish;

bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni ogohlantirish.

Tuman (shahar) komissiyalari ota-onalarning muomala layoqatini cheklangan deb topish, ularni ota-onalik huquqidан mahrum etish, bolalarni ota-onalaridan ularni ota-onalik huquqidан mahrum etmasdan olib qo'yish, shuningdek, agar bolalarning ota-onalari ota-onalik huquqidан mahrum qilingan bo'lsa va bolalari bilan birgalikda yashashlari mumkin emas deb topilsa, ularni boshqa turar joy bermasdan ko'chirib yuborish to'g'risida fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga da'vo bilan murojaat qilishi mumkin.

52. Bolalarni respublika o'quv-tarbiya muassasalariga yuborish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuman (shahar) komissiyasining iltimosnomasi asosida chiqarilgan jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining ajrimi bo'yicha amalga oshiradi.

53. Tuman (shahar) komissiyalari o'z bolalarini tarbiyalashga noto'g'ri munosabatda bo'layotgan yoki komissiya chiqqargan qarorning bajarilishiga to'sqinlik qilayotgan ota-onalarga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash haqida, shuningdek, bolalarning huquqbazarlik sodir etishi uchun sharoit yaratib berayotgan yoxud voyaga yetmaganlarni jinoyat va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar qilishga undayotgan yoki jalb etayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli davlat organlariga taqdimnoma kiritadi.

54. Ushbu Nizomning **50-bandida** nazarda tutilgan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilayotganda tuman (shahar) komissiyasi huquqbazarlikning xususiyati, darajasi va sabablarini, bolaning yoshini va uning hayot sharotlarini, uning huquqbazarlik qilishda qay darajada ishtirot etganligini, shuningdek, uning turmushidagi, ta'lim muassasasidagi va ishdagi xulq-atvorini albatta hisobga olishi lozim.

Tuman (shahar) komissiyasining ogohlantirish berish to'g'risidagi qarori bir yil mobaynida amal qiladi. Agar ushbu muddat ichida yangi huquqbazarlik sodir etilmasa, ta'sir ko'rsatish chorasi tugallangan hisoblanadi. Namunali axloqi bilan ijobiy natija ko'rsatgan bolalar yoki uning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslariga nisbatan ushbu ta'sir ko'rsatish chorasi bir yil o'tmasdan ham bekor qilinishi mumkin.

Tuman (shahar) komissiyasining bolani o‘z ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga yoki mehnat jamoasi, nodavlat notijorat tashkilot kuzatuviga topshirish to‘g‘risidagi qarorining amal qilish muddati, agar bola o‘zining namunali axloqi va ishga hamda o‘qishga bo‘lgan halol munosabati bilan o‘zining tuzalganligini isbotlasa, mazkur shaxslar yoki tashkilotlar iltimosnomasiga binoan istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.

Belgilangan ta’sir ko‘rsatish chorasi natija bermagan taqdirda, tuman (shahar) komissiyasi ushbu Nizomning [50](#) va [51-bandlarida](#) ko‘rsatilgan ta’sir ko‘rsatish choralaridan qattiqroq chora qo‘llashga haqlidir.

55. Tuman (shahar) komissiyasining jarima solish to‘g‘risidagi qarori shu qaror topshirilgan kundan boshlab o‘ttiz kun mobaynida ana shunday jarima solingen shaxs tomonidan to‘lanishi lozim, bunday qaror ustidan shikoyat yoki protest berilgan taqdirda esa, mazkur shikoyat yoki protest qondirilmaganligi haqida ma’lumotnomma olingan kundan boshlab o‘n besh kundan kechiktirmay to‘lanadi.

Tuman (shahar) komissiyasining qarori bilan solingen jarima tegishli bank muassasasiga to‘lanadi.

Jarima muddatida to‘lanmagan taqdirda, tuman (shahar) komissiyasining jarima solish to‘g‘risidagi qarori jarima summasini sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga muvofiq jarima solingen shaxsning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan majburiy tartibda ushlab qolish uchun yuboriladi.

Agar jarima solingen shaxs ishlamayotgan bo‘lsa yoki solingen jarimani boshqa sabablarga ko‘ra uning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan undirib olishning iloji bo‘lmasa, jarima tuman (shahar) komissiyasining jarima solish to‘g‘risidagi qarori asosida undiruvni huquqbuzarning mol-mulkiga, shuningdek, uning umumiyligi mulkdagi ulushiga qaratish yo‘li bilan sud ijrochisi tomonidan undirib olinadi.

56. Agar bolani respublika o‘quv-tarbiya muassasasidan, yetim bolalar va ota-onasi qarovisiz qolgan bolalar uchun mo‘ljallangan ta‘lim muassasasidan chiqarilganidan keyin, uni ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar qonunda belgilangan tartibda ota-onalik yoki vasiylik huquqlaridan mahrum etilganligi tufayli ular huzuriga yuborish mumkin bo‘lmasa, shuningdek, uning avvalgi istiqomat joyiga kelishi bir qancha sabablarga ko‘ra (ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yo‘qligi, turmushi va mehnat qilishi hamda bundan keyin tarbiyalanishi uchun kulay sharoitlar yo‘qligi sababli) mumkin bo‘lmasa, ushbu muassasa joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi bolani mazkur shaxsning maishiy yashash sharoitini yaxshilash, uni o‘qish yoki ishga joylashtirish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Ushbu masalalarni hal qilishda mazkur bandda ko‘rsatilgan muassasalar joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi bola ilgari yashab kelgan joydagi yoki uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar turgan joydagi komissiyaning tegishli xulosasini olishi lozim.

57. Jazoni ijro etish muassasasidan ozod bo‘lgan bola istiqomat qilayotgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi u o‘n sakkiz yoshga yetgungacha uni ishga yoki o‘qishga joylashtirish choralarini ko‘radi va uning axloqini nazorat qilib boradi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod bo‘lgan bolaning o‘z ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar huzuriga qaytishiga ularning yo‘qligi yoxud ota-onalik huquqidan yoki vasiylik huquqidan mahrum etilganligi munosabati bilan imkon bo‘lmasa, ozod bo‘lgan bolaning ilgari yashab kelgan joyidagi tuman (shahar) komissiyasi jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatining taqdimnomasiga binoan uni ixtisosiga muvofiq keladigan ishga yoki o‘qishga joylashtirish, shuningdek, unga tegishli uy-joy-maishiy sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Tuman (shahar) komissiyasi jazoni ijro etish muassasasidan ozod bo‘lgan bolani u yordam so‘rab murojaat qilgan kundan boshlab o‘n kun muddatdan kechiktirmay joylashtirish masalasini hal qilishi shart.

6-bob. Hududiy va tuman (shahar) komissiyalari tomonidan ishlarni tayyorlash va ko‘rib chiqish

58. Hududiy va tuman (shahar) komissiyalari:

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual **kodeksida** nazarda tutilgan tartibda topshirilgan ishlarni;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi **kodeksiga** muvofiq ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni;

bolalar, ularning ota-onasi yoki qonuniy vakillarining shikoyatlarini;

bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlar taqdimnomasi bo‘yicha berilgan ishlarni;

fuqarolarning arizalari bo‘yicha ko‘riladigan ishlarni;

o‘z tashabbusi bilan ko‘riladigan ishlarni ko‘rib chiqadi.

Hududiy va tuman (shahar) komissiyalari ishlarni ular komissiyaga tushgan paytdan boshlab ko‘pi bilan o‘n kun muddatda ko‘rib chiqadi.

59. Bolalarining huquqbuzarliklari to‘g‘risidagi tuman (shahar) komissiyasi ko‘rib chiqishi lozim bo‘lgan materiallar komissiyaning raisi, uning o‘rnibosari hamda komissiya a’zolari tomonidan oldindan o‘rganib chiqiladi va rais tomonidan:

ishni komissiya majlisida ko‘rib chiqish;

ishga oid materiallarni qo‘sishma ravishda tekshirish yoki tushgan arizalar, taqdimnomalar bo‘yicha tekshirib chiqish xususida qaror qabul qilinadi.

60. Huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish hududiy, tuman (shahar) komissiyada (yoki sudda) ko‘rib chiqilgunga qadar:

bola o‘z ota-onasi yoki qonuniy vakillari nazoratiga;

yetim bolalar va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ta’lim muassasalarida yoki respublika o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan bola esa — shu muassasalar ma’muriyatining nazoratiga berilishi mumkin.

Ishi hududiy, tuman (shahar) komissiyasida ko‘rib chiqilayotgan bolaning ruhiy jihatdan sog‘lom ekanligiga shubha tug‘ilgan taqdirda, u tibbiyot tekshiruvidan o‘tish uchun yuboriladi.

61. Hududiy, tuman (shahar) komissiyalari ishlarni tayyorlash va ko‘rib chiqish paytida bolaning yoshini, mashg‘ulotini, yashab turgan va tarbiyalanayotgan sharoitini, huquqbuzarlik qilganligi faktini va uning mazmunini tasdiqlovchi ma’lumotlarni, huquqbuzarlik qilishga da’vat etgan katta yoshdagisi kishilar va boshqa qatnashchilar bo‘lgan-bo‘lmaganligini, bolaga ilgari ta’sir ko‘rsatish chorasi qo‘llanilgan-qo‘llanilmaganligini aniqlashi zarur.

62. Hududiy, tuman (shahar) komissiyalari zarur ma’lumot va hujjatlarni talab qilib olishi, shuningdek, komissiyada ko‘rilayotgan masalalar yuzasidan izohlar olish uchun mansabdar shaxslar va fuqarolarni chaqirishi mumkin.

Mansabdar shaxslar va fuqarolar hududiy, tuman (shahar) komissiyalari chaqirig‘i bo‘yicha uzrsiz sabablar bilan kelmagan taqdirda, komissiya ishni ko‘rib chiqishni qoldirishi, ularni ishlayotgan yoki o‘qiyotgan joyidagi ma’muriyat, nodavlat notijorat tashkilotlar orqali keltirishni ta’minlash choralarini ko‘rishi mumkin.

Ishi ko‘rilayotgan bola, shuningdek, uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar komissiya majlisiga uzrsiz sabablar bilan kelishdan bosh tortgan taqdirda, ular ichki ishlarni organlari orqali hududiy, tuman (shahar) komissiyasining asoslangan qarori bo‘yicha olib kelinishi mumkin.

63. Ish ko‘rishga tayyor deb topilgach, shu ishni tayyorlash vazifasi topshirilgan hududiy, tuman (shahar) komissiyasi raisi, rais o‘rnibosari yoki a’zosi ish ko‘rib chiqilishidan oldin bolani, uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni, zarur hollarda esa ta’lim muassasalarining vakillarini ham barcha materiallar bilan tanishtirib chiqadi, komissiya majlisiga kimlarni chaqirish kerakligini aniqlab oladi hamda ish ko‘riladigan vaqt va joyni belgilaydi.

Hududiy, tuman (shahar) komissiyasi majlisi bo‘ladigan vaqt va joy haqida ishni ko‘rib chiqishda qatnashuvchi shaxslarga ma’lum qilinadi.

64. Hududiy, tuman (shahar) komissiyalarining majlisi komissiya tarkibining yarmidan ko‘pi yig‘ilganda haqiqiy hisoblanadi.

65. Hududiy, tuman (shahar) komissiyalarining majlisida ishi ko‘rilayotgan bolalar, ularning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, himoyachisi, zarur hollarda esa u ta’lim-tarbiya olayotgan muassasa psixologini bo‘lishi shart.

Hukm etilgan bolalarni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, ularga tayinlangan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish to‘g‘risidagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga iltimosnomalarni va mahkumlar xususidagi boshqa iltimosnomalarni ko‘rib chiqishda komissiya majlisida jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyatining vakili va mahkumning o‘zi hozir bo‘lishi shart.

Agar holatlarni tekshirib chiqish va muhokama qilish bolaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, komissiya materiallarni majlisda bolaning ishtirokisiz ko‘rib chiqishga haqlidir.

66. Hududiy, tuman (shahar) komissiyalari bolalarining ma‘muriy huquqbazarliklari to‘g‘risidagi o‘zlariga tegishli ishlarni O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi **kodeksida** nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqadi.

67. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan yig‘ilish ishtirokchilariga bepul tarjimon xizmati ko‘rsatiladi.

68. Hududiy, tuman (shahar) komissiyalari ish yuzasidan yig‘ilish ishtirokchilarining tushuntirishlarini tinglab, ishning barcha holatlarini har tomonlama ko‘rib chiqqach, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

ushbu Nizomning **50** va **51-bandlarida** nazarda tutilgan ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash (bunda har bir holatning xususiyatidan kelib chiqib individual yondashish va unga asosan tegishli muddat belgilanadi);

ishni tugatish;

ishni ko‘rishni qoldirib, qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish;

ishni tergov, surishtiruv yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarga topshirish.

69. Komissiya yig‘ilishi bayonnomasida yig‘ilish bo‘lgan sana va joy, ishning mazmuni, unda ishtirok etgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ular bergen izohlarning qisqacha mazmuni, ishga oid boshqa ma‘lumotlar, qo‘llanilgan ta’sir ko‘rsatish chorasi, shuningdek, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat berish tartibi va muddatlarini tushuntirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi. Bayonnomma raislik qiluvchi va komissyaning mas’ul kotibi tomonidan imzolanadi.

70. Hududiy, tuman (shahar) komissiyalari qarorlari yozma shaklda, dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim.

Ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorda:

komissyaning nomi, ishni ko‘rib chiqish sanasi, ishi ko‘rib chiqilayotgan shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ishni ko‘rib chiqish chog‘ida aniqlangan holatlar, mazkur huquqbazarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat, ish yuzasidan qabul qilingan qaror ko‘rsatiladi.

Qaror raislik qiluvchi va komissyaning mas’ul kotibi tomonidan imzolanadi va qabul qilingandan keyin e’lon qilinadi.

Komissiya qarorining nusxasi uch kun mobaynida yig‘ilish ishtirokchilariga, zarur hollarda, bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlarga topshiriladi yoki pochta (elektron pochta) orqali yuboriladi.

Komissiya qabul qilingan qaror to‘g‘risida voyaga yetmagan huquqbuzarning ishlab, o‘qib turgan joyiga yoki yashash joyi bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, shuningdek, uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yashab turgan joydagи fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga xabar beradi.

71. Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining bolani respublika o‘quv-tarbiya muassasasiga yuborish to‘g‘risidagi qarori bajarilishini ta‘minlash uchun bola ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirilishi mumkin, u bu erda barcha zarur hujjatlar rasmiylashtirilgungacha ko‘pi bilan o‘ttiz kun saqlanadi.

Istisno hollarda bolaning ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazida turish muddati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘pi bilan o‘n besh kunga uzaytirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari bola uchun shaxsiy hujjatlar yig‘majildini rasmiylashtirishni tugallaydi hamda tuman

(shahar) komissiyasi materiallari bo'yicha jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining chiqarilgan ajrimi asosida bolani respublika o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtiriladi.

72. Tuman (shahar) komissiyasi qarori ustidan yuqori komissiyaga yoki sudga shikoyat berilishi mumkin.

Tuman (shahar) komissiyasi qarori yuzasidan shikoyat tegishliligi bo'yicha hududiy komissiyaga u chiqarilgan va qaror nusxasi olingan kundan boshlab o'n kun muddat ichida berilishi mumkin.

Hududiy komissiyaning shikoyat bo'yicha qarori o'n besh kun ichida qabul qilinishi kerak va chiqarilgan qaror o'zgartirilmaydi.

Tuman (shahar) komissiyasi qarori yuzasidan sudga shikoyat berish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hududiy komissiyaning qarori va shikoyat bo'yicha chiqarilgan qaror yuzasidan prokuror protest bildirishi mumkin. Prokurorning protest bildirishi shu protest ko'rib chiqilgunga qadar komissiya qarorining va shikoyat yuzasidan chiqarilgan qarorning ijrosini to'xtatib turadi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

73. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

74. Hududiy va tuman (shahar) komissiyalarini qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-iyuldaggi 363-sон qaroriga
3-ILOVA**

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 12-apreldagi 147-sон qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari, sud organlari va notarial idoralari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lash shartlarining 1-bandi **oltinchi xatboshisidagi** "voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar" so'zları "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiysi, tuman (shahar) hokimliklari Bolalarni himoya qilish shu'balari" so'zları bilan almashtirilsin.

2. Vazirlar Mahkamasining "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to'g'risida" 2004-yil 7-sentabrdagi 419-sон qarorining 4-bandi **birinchi xatboshisidagi** "O'zbekiston Respublikasi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi" so'zları "Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya" so'zları bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldaggi 158-sон qarori bilan tasdiqlangan Oilaviy bolalar uylari to'g'risidagi **nizomda**:

a) **5-banddagi** "voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tumanlar va shaharlar idoralararo komissiyasining (keyingi o'rinnarda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya deb ataladi)" so'zları "Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyasining (keyingi o'rinnarda — Bolalar masalalari bo'yicha komissiya)" so'zları bilan almashtirilsin;

b) 8-bandning **birinchi xatboshisidagi** "voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga" so'zları "Bolalar masalalari bo'yicha komissiyaga" so'zları bilan almashtirilsin;

v) 9-bandning **birinchi xatboshisidagi** "voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya" so'zları "Bolalar masalalari bo'yicha komissiya" so'zları bilan almashtirilsin;

g) **10 va 11-bandlardagi** "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaning" so'zları "Bolalar masalalari bo'yicha komissiyaning" so'zları bilan almashtirilsin.

4. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdaggi 173-sон qarori bilan tasdiqlangan Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari to'g'risidagi **nizomda**:

a) 10-bandning **to‘rtinchi** va **beshinchi xatboshilaridagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) 40-bandning **yettinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalarga” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalarga” so‘zları bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 6-iyuldagı 201-son qarori bilan tasdiqlangan Kasbhunar kollejining Vasiylik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizomning **5-bandidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari” so‘zları bilan almashtirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari boshqaruv apparatlari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida” 2016-yil 27-apreldagi 123-son **qarorida**:

a) **1- ilovada:**

10-bandning **birinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning mas’ul kotibi” so‘zları “Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati” so‘zları bilan almashtirilsin;

12-bandning **birinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning mas’ul kotibi” so‘zları “Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati” so‘zları bilan almashtirilsin;

13-band quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati mudiri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport masalalari kotibiyati bilan kelishgan holda hokimning qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi”;

uchinchi — beshinchi xatboshilar tegishlicha to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

14-banddagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya mas’ul kotibining” so‘zları “Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyatining” so‘zları bilan almashtirilsin;

21-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) **2- ilovada:**

10-bandning **birinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning mas’ul kotibi” so‘zları “Bolalarni himoya qilish shu’basi” so‘zları bilan almashtirilsin;

12-bandning **birinchi** va beshinchi xatboshilaridagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning mas’ul kotibi” so‘zları “Bolalarni himoya qilish shu’basi” so‘zları bilan almashtirilsin;

18-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

v) **3- ilovada:**

10-bandning **birinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning mas’ul kotibi” so‘zları “Bolalarni himoya qilish shu’basi” so‘zları bilan almashtirilsin;

12-bandning **birinchi** va beshinchi xatboshilaridagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning mas’ul kotibi” so‘zları “Bolalarni himoya qilish shu’basi” so‘zları bilan almashtirilsin;

18-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-sentabrdagi 767-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) **27⁶-banddagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyaga” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyaga” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) **27⁷-banddagi** “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo Komissiya” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiya” so‘zları bilan almashtirilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 824-son qarori bilan tasdiqlangan Yetim bolalar va ota-onalarda qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga qabul qilayotgan nomzodlarni (fuqarolarni) tanlash, kuzatib borish hamda nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) 7-bandning **uchinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiya” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiya” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) 16-bandning **uchinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiya” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiya” so‘zları bilan almashtirilsin.

9. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-oktabrdagi 880-sun qarori bilan tasdiqlangan Respublika o‘quv-tarbiya muassasalari to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) **20-bandda:**

birinchi xatboshidagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiya” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiya” so‘zları bilan almashtirilsin;

uchinchchi xatboshidagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaga” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaga” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) 21-bandning **to‘rtinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyaga” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasiga” so‘zları bilan almashtirilsin;

v) 24-bandning **yettinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyaning” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasining” so‘zları bilan almashtirilsin;

g) 26-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiya” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasi” so‘zları bilan almashtirilsin;

d) **28-banddag'i** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarning” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalarining” so‘zları bilan almashtirilsin;

e) 29-bandning **birinchi** va **ikkinchi xatboshilaridagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiya” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasi” so‘zları bilan almashtirilsin;

j) 31-bandning **uchinchchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalar” so‘zları bilan almashtirilsin;

z) 34-bandning **uchinchchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarga” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalariga” so‘zları bilan almashtirilsin;

i) **37-banddag'i** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyaga” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasiga” so‘zları bilan almashtirilsin.

10. Vazirlar Mahkamasining “Xorijda ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining bolalarini O‘zbekiston Respublikasiga qaytarish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2020-yil 7-yanvardagi 6-sun qarori 2-bandni **beshinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, Bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari” so‘zları bilan almashtirilsin.

11. Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 21-noyabrdagi 739-sun **qarorida**:

a) 3-ilovaning 63-bandni **sakkizinchchi xatboshisidagi** “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutida” so‘zları “Xalq ta’limi vazirligining A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutida” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) 4-ilovaning **27-bandidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar” so‘zları bilan almashtirilsin.

12. Vazirlar Mahkamasining “Odam savdosidan jabrlangan yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni milliy darajadagi qayta yo‘naltirish tizimini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 8-fevraldagi 60-sun **qarorida**:

a) **1-ilovada:**

52-banddag'i “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyani” so‘zları “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyani” so‘zları bilan almashtirilsin;

53-banddagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiya” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

11-ilovaning 3 va 4-pozitsiyalaridagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiya” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **2-ilovada:**

31-banddagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

33-banddagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarga” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalarga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

13. Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-avgustdagи 490-son **qarorida**:

a) 3-bandning “v” kichik bandi **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilaridagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha mintaqaviy idoralararo komissiyaning” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 5-bandning **uchinchi** va **to‘rtinchi xatboshilaridagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha mintaqaviy idoralararo komissiya” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) **1-ilovada:**

10-bandning **oltinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaga” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

24-banddagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyani” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyani” so‘zlari bilan almashtirilsin;

25-banddagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiya” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

38-bandning **sakkizinchi xatboshisidagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaga” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

44-banddagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaga” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

45-bandning **birinchi** va **uchinchi xatboshilaridagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiya” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

49 — 51-bandlardagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiya” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ilovaning 6-pozitsiyasidagi “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyasi” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiya” so‘zlari bilan almashtirilsin.

14. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizomga **1-ilovada**:

a) **47-banddagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaning” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **51-banddagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaga” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) **54-banddagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyani” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyani” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) **55-banddagi** “voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyaning” so‘zlari “Bolalar masalalari bo‘yicha hududiy komissiyaning” so‘zlari bilan almashtirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2010-yil 26-noyabrdagi 268-son **qarori**.

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 14-martdag'i PQ-2833-son qarori)" 2017-yil 16-iyundagi 385-son qaroriga 1-ilovaning **2, 6** va **9-bandlari**.

3. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 31-maydag'i PF-5065-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 31-maydag'i PQ-3024-son qarori)" 2017-yil 29-avgustdag'i 679-son qaroriga ilovaning **14-band**.

4. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida" 2017-yil 9-yanvardagi O'RQ-420 son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-son qarori)" 2017-yil 21-dekabrdagi 1008-son qaroriga ilovaning **2-band**.

5. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20-fevraldag'i PQ-4199-son qarori)" 2019-yil 30-sentabrdagi 822-son qaroriga ilovaning **12-band**.

6. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4546-son qarori)" 2020-yil 7-iyuldag'i 429-son qaroriga 1-ilovaning **8-band**.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2022-y., 09/22/363/0600-son)